

MAXTUMQULI—ISHQ KUYCHISI

Aliyeva Dilshoda

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Xusanova Durdona

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asliturkman vakili bo'lgan Maxtumquli Firog'iy yaratgan asarlarning naqadar jozibadorligi, ezgulik, ishq kabi Hislarni o'zida mujassam qilganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В этой статье приведена информация о том, насколько Привлекательны произведения Махтумкули Фирогия, представителя Туркменского народа, и как они воплощают в себе такие чувства, Как доброта и любовь.

Abstract: This article provides information about how captivating the Works created by Makhtumkuli Firogiy, who was originally a Turkmen Representative, are, embodying feelings such as kindness and love.

Kalit so'zlar: Turkiy xalqlar adabiyoti, Maxtumquli ishq kuychisi, tazod, ilohiy

Ishq, dunyoviy ishq, Maxtumquli ijodida ezgulik, insonga muhabbat, ishq va Hayot falsafasi, Ozodiy shoir, shoir ijodida sadoqat.

Ключевые слова: Литература тюркских народов, Мактумкули — Певец любви, противоречие, божественная любовь, мирская любовь, Доброта в творчестве Мактумкули, любовь к человеку, философия Любви и жизни, свободный поэт, верность в творчестве поэта.

Keywords: Literature of Turkic peoples, Makhtumkuli the lover singer, Conflict, divine love, worldly love, goodness in Makhtumkuli's work, love for Humanity, philosophy of love and life, free poet, loyalty in the poet's Creativity

Maxtumquli Firog'iy (XVIII asr) turkman xalqining mumtoz shoiri, mutafakkir va ma'rifatparvar inson bo'lgan. Uning she'riyati o'z davrida

Ham, keyingi asrlarda ham turkman xalqining ma'naviy boyligini ifoda etgan. Maxtumquli (turkmancha: Magtumkuly Piragy; forsha: فراغی مخدومقلى, Maxtumquli Farog'iy) U 1724-yil Gurgan daryosi sohilidagi Hoji Govshan qishlog'ida Davlatmand oilasida tavallud topgan. Otasi Davlatmand ham shoir bo'lgan va Ozodiy taxallusi ostida she'rlar yozgan. Dastlabki ta'limni otasidan, keyinchalik boshqa ustozlarda ta'lim olgan. Maxtumqulining hayot yo'li juda og'ir kechgan. Yaqin insonlarini qora tuproqqa bergani holda sevgan ayoliga ham erisha olmagan. Uning she'riy asarlarining Harorati, kishilarga ta'sir darajasiga ham ijodkorning ijtimoiy hayotida Yo'liqqan voqealar ta'sirsiz qolmagan.

Maxtumqulining sevgi mavzusidagi asarlari o'zining ohangdorligi, o'qiganda kishini o'ziga jalb etib olishi va falsafiy mohiyati bilan ajralib turadi. Maxtumquli ikki xil ish: ilohiy hamda dunyoviy ishq haqida qalam tebratgan. Aytish joizki, uning ilohiy ishq, tasavvufiy mavzudagi asarlari Juda ta'sirli, e'tiborga molik. Quyida uning Xurshid Davron tomonidan tadbil qilingan "Oshiq Bo'lmisham" she'riy asarini ko'rib chiqamiz:

Ey, yoronlar, bir yuzi gul oya oshiq bo'lmisham,
Barchalar maqsudi gul-ra'noya oshiq bo'lmisham,
Bulbulam bog' ichra, bir g'avg'oya oshiq bo'lmisham,
O'zi g'oyib, zulflari yaldoya oshiq bo'lmisham,
Manzilim bog' ichradir, sahroya oshiq bo'lmisham.

Yuqorida keltirilganidek, oshiq morning shunaqangi tasvirlayaptiki, go'yo unga yetishmoq imkonsiz. Ushbu misrada keltirilgan tazod san'ati vositasida yor va oshiq holatlari bir-biriga mutlaqo teskari. Go'yoki, oshiq bir bog'-u, yor sahro. Bilamizki, bog' bilan sahro o'zaro ziddir. Yana davomini ko'ramiz:

Jismim ichra yor g'amidur, manzilim sahroda, hey,
Chekkanim g'am-g'ussadur, man do'nmisham Farhoda, hey,
Soldi ishqing, dilbaro, jonu jigarim o'ta, hey, Vodarig'o, kechti umrim, zoya berdim boda, hey,

Ohi ko'p, afg'oni ko'p bir kuya oshiq bo'lmisham.

Birinchi misraning o'ziyoq yor g'amining davosi yo'qligini isbotlaydi. Jismi yorning g'amidan bir ahvol, biroq manzili sahrolarda. Shunchalar g'amg'ussa chekkanidan Farhod holiga kelgan. Oxirgi misdada oshiq bir kuyga oshiq bo'lgan. Biroq, bu shunchaki emas, og'ir, o'tli, afg'onli, ohli kuydir.

Maxtumquli yuqorida qayd etilgandek, o'z sevgisiga erisha olmagan. Qarindosh qiziga oshiq bo'lgan-u, kambag'allik sababli unga erisha olmagan. Uning she'rlarida ham shu haroratni uchratishimiz mumkin. Yuqoridagi she'rda ham mudom yorning qo'l yetmas ekanligiga ishonch hosil bo'ladi.

Bir dilbara duch keldim – g'amzasi o'q, qoshi yoy, Quyosh hayron ko'rkidan, xijolatda to'lin oy.

Joning bersang, joizdir, bo'yla sifat mahbuba,

Hech ko'rmadim aningdek oqqush bo'yin, to'g'ri bo'y.

Yuqoridagi misralar shoirning naqadar nozik did vakili ekanligini, so'zlarni

Inju kabi bir qatorda jamlashini ko'rishimiz mumkin. Unda shoir Shunchalar go'zal, bekam-u ko'st, ko'rganda chiroyidan oy uyaladigan, Qosh-ko'zlari chiroyli bir mahbubani tasvirlaydi.

Maxtumquli uchun ishq oddiy hissiyot emas, balki hayot falsafasining Markazidir. U sevgi orqali insonni yuksaklikka, ma'naviy poklikka, Allohga

Yaqinlikka chorlaydi. Shoirning she'rlarida ishq ikki ma'noda talqin qilinadi:

Ilohiy ishq – Yaratuvchiga bo'lgan muhabbat, va insongina ishq – dilbar Yor, go'zallik timsoliga bo'lgan muhabbat.

Xulosa

Maxtumquli Farog'iy – ishqning eng sof, eng yuksak ma'nolarini kuylagan shoir. Uning she'rlari inson qalbida muhabbat, sadoqat, mehr-oqibat tuyg'ularini uyg'otadi. U o'z ijodi orqali insonni Allohga, Vataniga, insoniyatga muhabbat bilan yashashga undaydi. Shu bois ham Maxtumquli nomi "ishq kuychisi" nomi bilan mashhur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Maxtumquli. Tanlangan asarlar. Toshkent. O'zbekiston KP MK Nashriyoti. 1976, 156-bet.
2. Maxtumquli Firog'iy. Saylanma. Toshkent "O'zbekiston" 2008
3. Maxtumquli "Dunyo o'tib boradir" . Yangi asr avlodi. 1990.
4. A.Narzulloyev, O'zA
5. https://uza.uz/oz/posts/navoiydan-ilhomlangan-ilohiy-ishqkuychisi_569663
6. <https://kh-davron.uz/>